



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG'-KON SANOTI
VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

2024-2025

YILLIK AXBOROTNOMA

+998 (71) 231-05-96
www.gov.uz/mingeo
info@mingeo.uz

MUNDARIJA

Vazir murojaati.....	3
Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi haqida.....	4
I bob. O'zbekiston tog'-kon sanoati va geologiya sohasiga umumiy nuqtayi nazar.....	5
1.1. O'zbekiston tog'-kon sanoati va geologiya sohasi bo'yicha umumiy ma'lumot...	5
1.2. Tog'-kon sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni.....	6
II bob. Geologiya qidiruv sohasida amalga oshirilgan ishlar.....	8
2.1. Geologiya qidiruv ishlarini moliyalashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish	8
2.2. Mineral xomashyo bazasi rivojlantirish va yangi konlarni o'zlashtirish.....	9
2.3. Regional geologiya qidiruv ishlari.....	10
2.4. Hidrogeologik tadqiqot ishlari.....	11
III bob. Tog'-kon sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari.....	12
3.1. Ishlab chiqarish hajmlari.....	12
3.2. Eksport, import va mahalliy lashtirish ko'rsatkichlari.....	14
3.3. Ishga tushirilgan yirik investitsiya loyihalari.....	17
3.4. Sanoat uchun muhim minerallar sohasini rivojlantirish.....	19
3.5. Bozor tendensiyalari va O'zbekiston minerallariga bo'lgan talab.....	21
IV bob. Xalqaro hamkorlik va investitsiyalarni jalb qilish.....	22
4.1. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.....	22
4.2. Investitsiyalarni jalb qilish.....	25
V bob. Sohada raqamlashtirish.....	26
VI bob. Tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish.....	28
VII bob. Mas'uliyatli qazib olish va sohada xalqaro standartlarni joriy qilish.....	29
7.1. Tog'-kon sanoatida ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilishga qaratilgan sa'y-harakatlar.....	29
7.2. Sohada barqaror rivojlantirish standartlarini joriy qilish.....	31
VIII bob: Sohada kadrlar tayyorlash va innovatsion faoliyat.....	33
IX bob: 2026-yil uchun reja va maqsadlar.....	35
9.1. Ishlab chiqarish hajmini o'stirish.....	35
9.2. Sohada qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish.....	36
9.3. Sohada raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish.....	37
9.4. Yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish.....	38
9.5. Sohani 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha strategik rejalashtirish.....	39
Ilova: Yer qa'ridan foydalanuvchilarga ruxsatnomalar berish tartibi.....	41



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG'-KON SANOTI
VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

VAZIR MUROJAATI



Hurmatli yurtdoshlar, hamkasblar va investorlar!

O'tgan yillar mobaynida amalga oshirilgan barcha sa'y-harakatlarimiz "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilab berilgan ustuvor maqsad va vazifalarga tayangan holda mamlakatimiz tog'-kon sanoati hamda geologiya sohasini izchil rivojlantirishga qaratildi.

2024-2025-yillarda fidoyi jamoamiz boy mineral resurslarimizdan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini hayotga tatbiq etish yo'lida sidqidildan mehnat qildi.

Xususan, keng ko'lamlı geologik tadqiqot ishlari amalga oshirilib, mineral xomashyo bazasini uzoq muddatli rivojlantirish, barqaror konchilik amaliyotini joriy etish hamda sohaga investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha ishlar izchil davom ettirildi.

Shuningdek, 2024-yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan mamlakatning muhim xomashyo (CRM) salohiyatini birlashtirish, chuqur qayta ishlash va to'liq ro'yobga chiqarish bo'yicha milliy maqomga ega bo'lgan – "O'zbekiston texnologik metallar kombinati" AJ tashkil etildi.

Bugungi kunda oldimizda turgan asosiy vazifalar - geologiya ishlari hajmi va sifatini yanada oshirish orqali barqaror mineral xomashyo bazasini yaratish, tog'-kon sanoatini yanada rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, tadbirkorlik subyektlari uchun ochiq va shaffof muhit yaratish, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviylikni mustahkamlash, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va innovatsion yechimlarni sohada keng joriy etish, shuningdek, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va korrupsiyaga murosasiz bo'lishdan iboratdir.

2026-yilda ham mamlakatimiz tog'-kon sanoati taraqqiyotini ta'minlash yo'lida investorlarning sohaga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash, ular uchun barqaror va jozibador investitsion muhit yaratish bo'yicha tizimli ishlar davom ettiriladi.

Ishonchimiz komilki, sohaga davlatimiz rahbari tomonidan berilayotgan alohida e'tibor hamda birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz natijasida O'zbekistonning tog'-kon sanoati va geologiya sohasi yanada rivojlanib, xalqimiz farovonligiga xizmat qiladigan yangi bosqichga ko'tariladi.

**Hurmat bilan,
Bobur Islamov**



Vazirlik haqida


Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda 269-son Farmoni bilan tashkil etilgan bo'lib, kon-geologiya sohasida yagona davlat siyosatini shakllantiradi va amalga oshiradi.

Maqsad

Mineral resurslardan oqilona foydalanish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga asos bo'luvchi geologiya va kon-metallurgiya sanoatini yaratish hamda sohada mintaqa yetakchisiga aylanish.

Vazifa

Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini barqaror rivojlantirish, mineral resurslarni samarali qidirish, qazib olish va boshqarishni ta'minlash.



Ustuvor yo'nalishlar:

- Tog'-kon sanoati va geologiya sohasida yagona davlat siyosatini yuritish;
- Geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish, yangi konlarni aniqlash va mineral-resurs bazasini barqaror o'stirish;
- Qazib olish va qayta ishlash hajmlarini oshirish, ilg'or texnologiyalar asosida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash;
- Yer qa'ridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, shaffof va sifatli davlat xizmatlarini ko'rsatish;
- Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish, kon-metallurgiya sohasida klaster va kooperatsiya tizimini rivojlantirish;
- Zamon talabiga mos malakali mutaxassislar tayyorlash, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, sohada raqamli va innovatsion yechimlarni joriy etish.

O'zbekiston tog'-kon sanoati va geologiya sohasiga umumiy nuqtayi nazar



1.1 O'zbekiston tog'-kon sanoati va geologiya sohasi bo'yicha umumiy ma'lumot

O'zbekiston Markaziy Osiyoda joylashgan bo'lib, u qariyb 449 ming kv. km maydon va 38,2 million aholiga ega. O'zbekiston berk hududda ya'ni dengiz portiga ega bo'lmagan Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston va Turkmaniston kabi besh mamlakat bilan chegaradosh.

O'zbekiston Respublikasining umumiy maydonining 134,6 ming kilometr kvadrat qismi tog'li va tog'oldi hamda 314,3 ming kilometr kvadrat qismi yopiq hududlar hisoblanadi. Tog'li va tog'oldi hududlarning 47,6 ming kilometr kvadrat qismida geologik o'rganish ishlari olib borilgan va o'rganilganlik darajasi 35 foizga yetkazilgan.


O'zbekiston geografiyasi xilma-xil landshaftlari va boy tabiiy resurslari bilan ajralib turadi, bu esa uni tog'-kon sanoati uchun qulay mamlakatga aylantiradi. Yurtimizning ayniqsa Navoiy, Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari foydali qazilmalarga boy hisoblanadi.

O'zbekiston hududida oltin,

kumush, platina metallari, mis, uran, qo'rg'oshin, molibden, volfram, marganes, litiy, xrom, nikel, qalay, tantal, niobiy, kobalt, skandiy, germaniy, reniy, neft, tabiiy gaz kabi ko'plab turdagi mineral resurslar aniqlangan.

O'zbekiston strategik foydali qazilmalarining zaxiralari bo'yicha dunyoda o'z o'rniga ega bo'lib zaxiralari bo'yicha jahon miqyosida birinchi o'nta mamlakat qatoriga kiradi.

E'tiborlisi, O'zbekiston oltin zaxirasi bo'yicha 5-o'rin, uran zaxirasi bo'yicha 12-o'rin, mis zaxirasi bo'yicha 8-o'rin, kaliy tuzlari zaxirasi bo'yicha 4-o'ringa turadi.



So'nggi yillarda tog'-kon sanoati va geologiya sohasida qonunchilik bazasini mustahkamlash, yer qa'rini geologik jihatdan o'rganishni takomillashtirish, mineral xom ashyo bazasini rivojlantirish, geologiya-qidiruv ishlarini rag'batlantirish va sohaga investitsiyalarni faol jalb qilish yo'lida keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan:

- geologik jihatdan kam o'rganilgan yer qa'ri uchastkalarini xalqaro standartlar asosida bloklarga (maydonlar) ajratish tizimi joriy etildi;

O'zbekiston tog'-kon sanoati va geologiya sohasiga umumiy nuqtayi nazar

- o'rganilganlik darajasi va kon ochish salohiyati yuqori bo'lgan maydonlarda geologik jihatdan o'rganish hamda qazib olish ishlarini amalga oshirish uchun ruxsatnomalar ochiq auksion o'tkazish yo'li bilan berish amaliyoti joriy qilindi;

- kam o'rganilgan yoki o'rganilmagan hududlar bo'yicha investorlarning murojaatiga muvofiq **"birinchi kelgan birinchi oladi" (first come, first served)** tamoyilini qo'llash orqali yer qa'ridan foydalanish huquqini berish yo'lga qo'yildi;

- geologiya-qidiruv ishlarini o'tkazish uchun ajratilgan yer uchastkalari yer solig'idan ozod etildi;

- yer osti boyliklaridan foydalanishga doir ruxsatnomalarni to'liq davlat xizmatlari elektron platformasi orqali "yagona darcha" (one window) tamoyilida berish tashkil qilindi;

- geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar konlarni qidirish, aniqlash va ishlatish davrida geologik qidiruvni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus texnikalarni vaqtincha olib kirishda davriy bojxona to'lovlaridan ozod etildi;

- O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan asbob-uskunalar, moddiy-texnika resurslari va maxsus texnikalarni import qilishda bojxona bojidan ozod etildi.

Shuningdek, 2022-yil 1-yanvardan investorlar uchun jozibador bo'lgan foydali qazilmalarning ayrim turlari

uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari sezilarli darajada kamaytirildi.

2023-yil dekabr holatiga O'zbekistonda jami 519 ta strategik turdagi foydali qazilmalar konlarida geologik qidiruv va qazib olish ishlari borilmoqda.

Shundan, turli bosqichdagi 18 ta loyiha xorijiy investorlar tomonidan amalga oshirib kelinmoqda.

1.2 Tog'-kon sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni.

2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi joriy narxlarda 1 454 573,9 mlrd. so'mni (*yoki 114,9 milliard dollarini*) tashkil etdi va 2023-yil bilan taqqoslaganda 6,5 % ga o'sdi.

2024-yilda aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi esa joriy narxlarda 39,1 million so'mni (*yoki 3 092,7 dollarini*) tashkil etdi.

2025-yilda bu ko'rsatkichlar yanada o'sish sur'atini ko'rsatdi. O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 2025-yil yakuniga ko'ra 7,7 foizga o'sib, 1 849,7 trillion so'mni (147,08 milliard dollar) tashkil etdi. Aholi jon boshiga YAIM dastlabki hisobda 48,4 mln so'mni (3 846 dollar) tashkil etdi.

2025-yilda sanoatning o'sishi 6,8 foizni tashkil etdi, uning YAIM o'sishiga qo'shgan hissasi 1,7 foiz bandga baholanmoqda.

Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqarish

O'zbekiston tog'-kon sanoati va geologiya sohasiga umumiy nuqtayi nazar

sanoatining ulushi 86 foiz (2024-yilda 85,1 foiz), tog'-kon sanoati — 7 foiz (2024-yilda 7,6%), elektr va gaz ta'minoti, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash — 6,4 foizni (2024-yilda 6,8 foiz) tashkil etdi.

Shu bilan birga, neft va gaz qazib olish (-3,8 foiz) va kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (-7,5 foiz) pasayishi qayd etildi.

2024-yilda O'zbekistonning jami eksporti 26,9 milliard dollarni tashkil qildi. Eksportning umumiy hajmida oltin, xizmatlar sohasi va sanoat mahsulotlari yetakchilik qildi. Xususan, jami eksportning 27,8 foizini oltin, 15,6 foizini sanoat mahsulotlari tashkil etadi.

O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2025-yilda 81,2 milliard dollarga yetib, 20,7 foizga oshdi. Eksport 24 foizga o'sib, 33,8 milliard dollarni, import 18,5 foizga o'sib, 47,4 milliard dollarni tashkil etdi. Jami eksportning deyarli 30 foizi oltin hissasiga to'g'ri keldi.

O'zbekiston tog'-kon sanoati mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, soha respublika eksport daromadlarini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga katta hissa qo'shadi.

Respublika yirik tog'-kon sanoati korxonalari asosiy soliq va dividend to'lovlarini amalga oshiruchi korxonalar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 12-iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan “Yuridik

shaxslarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to'g'risida”gi 3172-sonli (2024-yil 1-iyulidan Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tgan 3172-3-son yangi tahriri) Nizomning 4-bandiga asosan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ va “Olmaliq KMK” AJ hamda ularning ta'sischiligidagi tashkilotlar yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan.

2024-yil davomida 949 ta yirik soliq to'lovchi salkam 123,3 trillion so'm soliq to'lagan bo'lib, eng ko'p soliq to'lash bo'yicha o'ntalik yetakchisi “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ bo'ldi — 35,3 trillion so'm. Keyingi o'rinlarni “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ (10,8 trillion so'm), uran ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi “Navoiyuran” DK (4,6 trln so'm), egallagan.

Bugungi kunda sohada jami 120 mingdan ortiq xodim faoliyat yuritib, shundan 10,9 foizi (13 226 nafar) oliy ma'lumotga ega mutaxassislar hisoblanadi.

Umumiy qilib aytganda, bugungi kunda tog'-kon va metallurgiya sanoati davlat iqtisodiyotining tayanch tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur tarmoq respublika iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda muhim o'rinni egallab, sanoatni xomashyo bilan ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish, mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YIM) hajmiga sezilarli hissa qo'shmoqda hamda sanoatning qolgan barcha tarmoqlari uchun mustahkam poydevor vazifasini bajarmoqda.



Geologiya qidiruv sohasida amalga oshirilgan ishlar



2.1 Geologiya qidiruv ishlarini moliyalashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish

O'zbekistonda geologiya-qidiruv ishlari davlat byudjeti, kon-metallurgiya korxonalarini va investorlar mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Respublika mineral-xom ashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturi doirasida 2024-2025-yillar davomida davlat byudjeti va kon-metallurgiya korxonalarini tomonidan mineral-xom ashyo bazasini rivojlantirish davlat dasturi doirasida jami 588 ta geologik loyiha (*shundan 327 ta byudjet loyihalari*) bo'yicha geologiya-qidiruv ishlariga jami 5,5 trillion so'm mablag' sarflangan bo'lib, jumladan 1,67 trillion so'm byudjet mablag'lari hamda 3,83 trillion so'm maxsus hisobdagi hamda "Olmaliq KMK", "Navoiy KMK" aksiyadorlik jamiyatlari va "Navoiyuran" davlat korxonasi mablag'lari o'zlashtirildi.

Davlat dasturi doirasida hamda barcha manbalar hisobiga 4 900,5 ming pog.m burg'ilash ishlari, 552,9 ming kub.m yer usti tog'-kon ishlari, 15,7 ming pog.m yer osti tog'-kon ishlari (lahmlar, shurflar), 13 300 pog.km 2D seysmik-qidiruv va 4 800 kv.km 3D seysmik-qidiruv ish hajmlari amalga oshirildi.

Shuningdek, 2025 yil yakunlariga ko'ra respublikada xorijiy investorlar tomonidan 25 ta investitsiya loyihasi doirasida geologiya qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun jami 212,3 mln dollar yo'naltirilgan bo'lib, amalga oshirilgan geologiya qidiruv ishlari bo'yicha loyihalarda xorijiy investorlar ulushi 46,5 foizni tashkil etdi.

Hozirgi kunga qadar, geologiya-qidiruv ishlariga Kanada, Fransiya, Turkiya, Yaponiya, Xitoy, Avstriya va Rossiya kabi mamlakatlardan investitsiyalar jalb qilinmoqda.



2.2 Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va konlarni o'zlashtirish

O'zbekiston rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqib, mineral xomashyo bazasini rivojlantirishda yuqoridagi 3 turkumdagi minerallar resurs va zaxiralarini o'stirishga ustuvorlik beradi.

O'zbekiston iqtisodiyotini o'stirishda oltin, kumush, mis, uran, uglevodorod, rux va qo'rg'oshin kabi mineral resurslarning hissasi yuqori hisoblanadi. Mazkur mineral resurslar YAIMni o'stirish salmoqli hissa qo'shib, davlat byudjetga tushumlarning ortishiga olib keladi.

2024-2025-yillarda zaxiralar bo'yicha oltin – 346,3 t, kumush – 835,1 t, mis – 707,2 ming t, uran – 35 498 t, qo'rg'oshin – 86,5 ming t, rux – 124,4 ming t, volfram – 18,8 ming t, yer osti

suvlari – 357,7 ming kub.m/sutka, ko'mir – 13,7 million t, kaliy tuzlari – 22,9 mln t, ohaktosh – 121 million kub, m, lyoss tog' jinslari – 6,9 million kub.m miqdorida ko'paytirildi.

Chuqur izlov burg'ilash uchun neft va gazga istiqbolli 38 ta yangi istiqbolli maydonlar aniqlandi hamda uglevodorod resurslari 237,3 million t miqdorida o'stirildi.

Natijada, xorijiy va mahalliy kompaniyalar tomonidan **Buxoro-Xiva** hududida Yangi Kultak, Chunagar (ter.yura), Alachavan, Koktepa, Xidir, Cho'lnuri, Yangi Chuqurko'l, Zafarobod, Karaxodja, Ambartepa, To'rtsari, **Ustyurt** regionida Kuyi Shege, Mo'ynoq, Orolboy, Aydinko'l, **Farg'ona** regionida Yangi Avval, Zambuloq, **Surxondaryo** regionida Kuyi Xaudag uglevodorod konlari aniqlandi.

Ustyurt hududida uglevodorodga geologiya-qidiruv ishlari





Geologiya qidiruv sohasida amalga oshirilgan ishlar

2024-2025-yillarda Davlat komissiyasi tomonidan 14 ta geologiya-qidiruv ishlarini tartibga soluvchi normativ hujjatlari hamda 104 ta foydali qazilmalari, jumladan 11 ta oltin, 2 ta kumush, 10 ta uran, 8 ta uglevodorod, 19 ta yer osti suvlari, 2 ta ko‘mir, 1 ta marganes va 51 ta har xil turdagi noruda foydali qazilmalar zaxiralari tasdiqlandi.

Sohaga investorlarni keng jalb qilish hamda tadbirkorlarga qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida 2024-2025-yillarda “Inson omilisiz” 927 ta kon va istiqbolli maydonlar (shu jumladan, 142 ta strategik, 73 ta oltin izlovchilar, 712 ta noruda kon va uchastkalari) auksion savdolari orqali taklif etildi.

Natijada, auksion savdolari yakunlari bo‘yicha jami 508 ta (shu jumladan, strategik– 29 ta, noruda – 408 ta, oltin izlovchilar – 71 ta) ruxsatnomalar berilib, davlat byudjetiga 744,6 milliard so‘m tushum ta‘minlandi.

Bugungi kunda Tog‘-kon sanoati


va geologiya vazirligi huzuridagi “Yer qa‘ridan foydalanish markazi” Davlat muassasasi tomonidan 27 turdagi davlat xizmatlari ko‘rsatib kelinmoqda. Shundan 10 tasi yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali va 3 tasi “Litsenziya” axborot tizimi orqali elektron shaklga o‘tkazilgan.

2.3 Regional qidiruv ishlari

O‘zbekistonning umumiy hududi 448,9 ming kvadrat km, shundan tog‘ va tog‘oldi hududlari 134,6 ming kvadrat km ni tashkil etadi (30%).

2017-2025-yillarda respublika hududining tog‘ va tog‘oldi maydonlarida 90 ming kvadrat km qismida geologik o‘rganish ishlari olib borilgan va respublika hududining o‘rganilganlik darajasini 48 foizga yetkazilgan. Jumladan, tog‘ va tog‘oldi hududlarida 36,6 ming kvadrat km regional o‘rganish va 11 ming kvadrat km seysmorazvedka 3D ishlari amalga oshirilgan.

Regional geologiya-qidiruv ishlari bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar



Geologiya qidiruv sohasida amalga oshirilgan ishlar

2026-2030-yillarda Respublika foydali qazilmalarning istiqboldagi resurslarini ko'paytirish uchun kelgusi 5 yilda 60 ming kvadrat km maydonda - regional geofizik tadqiqotlar, 18 ming kvadrat km maydonda - regional kimyoviy va geologik tasvirlash ishlari amalga oshirish belgilangan.

Natijada Respublika hududining umumiy o'rganilganlik darajasi 2025 yildagi 48 foizdan 2030 yilda 62 foizga yetkaziladi. Jumladan, tog' va tog'oldi hududlarini o'rganilganlik darajasi 2025-yildagi 62 foizdan 2030-yilda 79 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan.

2.4 Hidrogeologik tadqiqot ishlari


Hidrogeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 23,3 milliard m³/yil miqdorda yer osti suv resurslari baholangan bo'lib, shundan 20,5 milliard m³/yil ichimlik va sug'orishga yaroqli. Bugungi kunda 44,4 ming burg'ilash qudug'i ro'yxatga olingan bo'lib, ulardan 7,6 milliard m³/yil yer osti suvlari olinmoqda.

2017-2025-yillarda respublika miqyosida 1,1 million m³/sutka yer osti suv zaxiralari aniqlangan bo'lib, buning natijasida 2,7 millon aholining ichimlik suv ta'minoti yaxshilandi va 155 ming gektardan ortiq qishloq xo'jaligi yerlari o'zlashtirilib, qayta oborotga kiritildi.

2026-2030-yillarda aholi sonining o'sishi, qishloq xo'jaligi yerlarining kengayishi va yangi ishlab chiqarish obyektlarining qurilishi natijasida yuzaga keladigan suvga, jumladan, yer osti suvlariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida 1,2 million m³/sutka yer osti ichimlik va kamsho'rlangan suv zaxiralari hamda 730 m³/sutka yer osti mineral va termal suv zaxiralari o'stirilishi rejalashtirilgan.

Tadqiqotlar natijasida 4 millionga yaqin aholi ichimlik suv bilan ta'minlanishi, 250 ming gektardan ortiq qishloq xo'jaligi yerlarining o'zlashtirilishi va 300 ming aholining davolanishi-tiklanishi kutilmoqda.

Gidrogeologiya yo'nalishida maqsadli ko'rsatkichlar





Togʻ-kon sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarish koʻrsatkichlari



3.1 Ishlab chiqarish hajmlari.

Oʻtgan 2017-2023-yillarga nazar tashlaydigan boʻlsak, biz qimmatbaho va rangli metallar, shuningdek, qora metallurgiya mahsulotlari, energetika xomashyosini ishlab chiqarish koʻrsatkichlarining oʻsish dinamikasini koʻrishimiz mumkin, shuningdek, yillik oʻsish surʼati (CAGR) 5%ni tashkil qilgan (*Manba: Yillik axborotnoma-2023*).

2024-2025-yillarda tizim osti korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 373,6 trillion soʻmni tashkil etib, shundan qimmatbaho va rangli metallar sohasida 319,4 trillion soʻm, qora metallurgiya sohasida 20,6 trillion soʻm, uran sohasida 28 trillion soʻm, koʻmir sanoatida 4,3 trillion soʻm, noyob metallar sohasida 1,4 trillion soʻm mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Jumladan:

“Navoiy KMK” AJ tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmi 229,6 trillion soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bunda 194,3 tonna oltin va 46,7 tonna kumush ishlab chiqarildi.

“Olmaliq KMK” AJ tomonidan 89,8 trillion soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi.

Bunda 285,9 ming tonna mis ishlab chiqarildi, shuningdek yoʻldosh oltin – 37,3 tonna, kumush – 303,6 tonna, ruh – 129,5 ming tonna.

“Navoiyuran” DK tomonidan jami 28 trillion soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

“Navoiy KMK” AJga qarashli “Muruntov” oltin koni





Togʻ-kon sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarish koʻrsatkichlari

“Oʻzmetkombinat” AJ tomonidan jami 14,2 trillion soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bunda 1 454,5 ming tonna qora metall prokati ishlab chiqarildi, shu jumladan navli prokat 950,4 ming tonna va poʻlat sharlar 504,1 ming tonna ishlab chiqarishga erishildi.


“Oʻzbekiston TMK” AJ tomonidan 1,4 trillion soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi. Bunda 1 731,6 tonna molibden, 488,8 tonna volfram konsentrati, 54,1 tonna qattiq qotishmali mahsulotlar, 2 870,8 tonna keramik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

“Oʻzbekkoʻmir” va “Shargʻun koʻmir” AJlari tomonidan 4,3 trillion soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bunda korxonalar tomonida jami 15 251,1 ming tonna koʻmir qazib olindi.

Buning natijasida 2024-2025-yillarda kon-metallurgiya korxonalaridan davlat byudjetiga toʻlovlar jami 161 trillion soʻm tushumlar amalga oshirilgan.


2024-yilda kon-metallurgiya korxonalarining umumiy soliq tushumlaridagi ulushi 42 foizni tashkil etdi.

2024-2025-yillarda yirik korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish





Tog'-kon sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari



3.2. Eksport, import va mahalliyashtirish ko'rsatkichlari.

2024-2025-yillar mobaynida kon-metallurgiya korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar eksporti qiymati 3,2 milliard dollarni tashkil etgan.

Bunda, rangli metallar 1 121,3 million dollar, qora metallurgiya 146,2 million dollar va energetik xomashyo 1 946,4 million dollarni tashkil etadi.

“Olmaliq KMK” AJ tomonidan jami 1 121,3 dollar qiymatidagi rangli metallar eksport qilindi. Kombinat tomonidan mis va rux mahsulotlari, shuningdek, reniy, kadmiy, mis kuporosi, texnik tellur, palladiy kukuni, qo'rg'oshin konsentrati kabi mahsulotlar 11 ta davlatga eksport qilinmoqda.

Sanoat sohasida qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, xususan elektrotexnika yo'nalishlarida mis mahsulotlariga bo'lgan


talabning ortishi sababli mahsulotning sezilarli qismi ichki bozorga yo'naltirilgan.

“O'zmetkombinat” AJ tomonidan jami 42,1 million dollar qiymatidagi qora metallurgiya mahsulotlari, jumladan qora metal prokati, mis folga, lenta va listlar, shuningdek, issiqlik o'tkazmas materiallar hamda sirlangan emal idishlar dunyoning 16 dan ortiq mamlakatlariga eksport qilindi.

“Navoiyuran” DK tomonidan jami 1 946,4 million dollar qiymatidagi mahsulotlar eksport qilindi.

“O'zbekiston TMK” AJ tomonidan 88,2 million dollar qiymatidagi noyob metallar, jumladan molibden, volfram va reniy metallari dunyoning 9 dan ortiq mamlakatlariga eksport qilindi.

Tizim kon-metallurgiya korxonalari tomonidan 2024-2025-yillarda import hajmi 2,1 milliard dollarni tashkil etdi.





Togʻ-kon sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarish koʻrsatkichlari

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2024-2025-yillarda tizim korxonalari tomonidan jami 10,5 trillion soʻmlik, shu jumladan “Navoiy KMK” AJ – 2322,4 milliard soʻm, “Olmaliq KMK” AJ – 2565,3 milliard soʻm, “Oʻzmetkombinat” AJ – 1 901,8 milliard soʻm, “Navoiyuran” DK – 180,6 milliard soʻm, “Oʻzbekkoʻmir” AJ – 11,8 milliard soʻm, “Toshkent MZ” MCHJ QK – 2991,8 milliard soʻm hamda “Oʻzbekiston TMK” AJ – 519,5 milliard soʻmlik uskuna, mashina, ehtiyot va butlovchi qismlar ishlab chiqarildi.


Birgina 2025 yil mobaynida kon-metallurgi korxonalari tomonidan yangi loyihalarni mahalliyashtirish evaziga jami 68 ta loyiha doirasida 1 490,6 milliard soʻmlik mahsulotlar oʻzlashtirilishiga erishildi.

Shu bilan birga 187 ta kengaytirilgan loyihalar doirasida jami 5 536,1 milliard soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Sanoat kooperatsiyasi yoʻnalishida 2024-2025-yillarda kombinatlar tomonidan 23,7 trillion soʻmlik mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan turli rusumdagi asbob-uskunalar, butlovchi va ehtiyot qismlar hamda import oʻrnini bosuvchi yangi mahsulotlarni xarid qilish boʻyicha hamkorlik shartnomalari imzolangan.

Jumladan, “Navoiy KMK” AJ – 13,5 trillion soʻm, “Olmaliq KMK” AJ – 5,5 trillion soʻm, “Oʻzmetkombinat” AJ – 2,3 trillion soʻm, “Navoiyuran” DK – 1,9 trillion soʻm, “Oʻzbekkoʻmir” AJ – 83,3 milliard soʻm va “Oʻzbekiston TMK” AJ – 259,3 milliard soʻm.


2024-2025-yillarda mahalliyashtirish dasturi doirasida mahsulotlar ishlab chiqarish





Tog'-kon sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

2024-2025-yillarda sanoat kooperatsiya doirasida mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xarid qilish



2024-2025-yillarda aksariyat korxonalar mahalliy mahsulotlar xaridining ijobiy o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Bu esa mahalliyashtirishni kuchaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda mamlakat ichidagi sanoat kooperatsiyasini kengaytirish borasidagi izchil sa'y-harakatlarni aks ettiradi.

“Navoiy KMK” AJ mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eng yirik xaridori bo'lib qolmoqda. Xarid hajmi 2024-yildagi 6,24 trillion so'mdan 2025-yilda 7,30 trillion so'mga yetgan. Shuningdek, Olmaliq KMKda ham sezilarli o'sish kuzatilib, xarid hajmi 1,40 trillion so'mdan 4,30 trillion so'mga oshgan. Bu esa mahalliy yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikning kuchaygani va mahalliyashtirish dasturlari kengayganidan dalolat beradi.

Xuddi shuningdek, “Navoiyuran” DK

va “O'zmetkombinat” AJda ham mahalliy xarid hajmlarining barqaror o'sishi qayd etildi. “Navoiyuran” DK xaridlari 0,75 trillion so'mdan 1,20 trillion so'mga, “O'zmetkombinat” AJda esa 0,84 trln so'mdan 1,50 trillion so'mga oshgan.

“O'zbekko'mir” AJda xarid hajmlari nisbatan barqaror saqlanib, 0,04 trillion so'mdan 0,05 trillion so'mga biroz o'sish qayd etildi. “O'zbekiston TMK” AJ ham sanoat kooperatsiyasi dasturlarida ishtirok etdi, biroq xarid hajmlari cheklangan darajada bo'ldi.

Mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar xaridi hajmining umumiy o'sishi tarmoqda ichki sanoat salohiyatini rivojlantirish, importga qaramlikni kamaytirish hamda mahalliy ta'minot zanjirlarini mustahkamlash orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qat'iy yondashuv mavjudligini ko'rsatadi.



Tog'-kon sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

3.3. Ishga tushirilgan yirik investitsiya loyihalari.

Investitsiya dasturi doirasida 2024-2025-yillarda umumiy qiymati 30 milliard dollarga yaqin 60 ta loyiha doirasida 6,2 milliard dollar (shundan 5,5 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar) investitsiyalar o'zlashtirildi.

Bunda, Kon-geologiya vazirligi loyihalari doirasida 1 606,7 million dollar (shundan 1 606,7 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar) hamda kon-metallurgiya korxonalarini tomonidan 4 536,8 million dollar (shundan 3,9 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar) investitsiya mablag'lari o'zlashtirildi.

Kon-metallurgiya korxonalarini tomonidan 2024-2025-yillarda quyidagi yirik loyihalar ishga tushirildi.

Xususan, 2024-yilda "Navoiy KMK"

"Navoiy KMK" AJga qarashli "Ko'kpatas" oltin koni

AJ tomonidan loyiha qiymatlari 274,7 million dollarga teng bo'lgan "Pistali konida oltin tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish (6-GMZ) (infratuzilma obyektlari)" hamda 127,5 million dollarga teng bo'lgan "Amudaryo-Zarafshon suv quvurining 3-liniyasini qurish va nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish" loyihalarini ishga tushirildi.

2025-yilda umumiy loyiha qiymati 1 milliard dollardan ortiq bo'lgan 4 ta loyiha, xususan "Muruntov" konini o'zlashtirish (5 navbati, 1-bosqich), 7-GMZ qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish, Zarmitan konining quyi gorizontlarini o'zlashtirish hamda "Ko'kpatas" va "Daugiztau" oltin konlarida ma'dan qazib olish (III navbati) loyihalari foydalanishga topshirildi. Natijada kombinatda ma'danni qayta ishlash quvvatlarini oshirishga erishildi hamda 3 000 nafardan ortiq yangi ish o'zni yaratildi.





Tog'-kon sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

2025-yilda respublikaning eng yirik mis ishlab chiqaruvchi korxonasi - "Olmaliq KMK" AJ tomonidan "Yoshlik-I" konini o'zlashtirish loyihasi doirasida 3-mis boyitish fabrikasining dastlabki bosqichi ishga tushirildi. Qiymati 2 milliard 700 million dollarlik fabrikaning to'liq quvvatda ishlashi natijasida yiliga 60 million tonna ma'danni qayta ishlash orqali 900 ming tonnadan ortiq mis konsentrati ishlab chiqarishga erishiladi.

Loyiha doirasida 6 mingdan ortiq yoshlar doimiy va yuqori daromadli ish o'rnini bilan ta'minlanadi.

Shuningdek, kombinatda qiymati 460 million dollarga teng "Olmaliq KMK" AJning asosiy ishlab chiqarish quvvatlarini qayta qurish va barqarorlashtirish dasturi amalga oshirildi.

2025-yilda qora metallurgiya korxonasi - "O'zmetkombinat" AJ

tomonidan qiymati 839 million dollarga teng bo'lgan "Quyuv prokatlash majmuasini qurish" investitsiya loyihasi foydalanishga topshirildi.

Loyiha to'liq quvvati 1 million tonna po'lat mahsulotlarini ishlab chiqarish teng bo'lib, loyiha doirasida 1 295 yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Loyihani ishga tushirish natijasida kombinatning po'lat quyish quvvati yiliga 1 mln tonnadan 2,1 mln tonnaga va tayyor mahsulotning umumiy xajmi ikki barobarga, ya'ni yiliga 2,2 mln tonnaga oshadi.

Bundan tashqari, 2025-yilda Davlat investitsiya dasturlari doirasida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan umumiy qiymati 100 million dollarga teng bo'lgan 2 ta investitsiya loyihalari, xususan:

"Olmaliq KMK" AJ 3-mis boyitish fabrikasi





Tog'-kon sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

Toshkent viloyati Angren shahrida joylashgan “Bab energy ve petrol urunleri” MCHJ XK tomonidan “Apartak-3” ko'mir konini o'zlashtirish (1-bosqich);

Samarqand viloyati Nurabod tumanida “Cemix” MCHJ tomonidan yirik formatli keramogranit va mikrokalsit ishlab chiqarishni tashkil etish (1-bosqich) investitsiya loyihalari ishga tushirildi.

Natijada 700 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratilib, 500 ming tonnaga yaqin ko'mir qazib olish hamda 200 ming tonnaga yaqin keromagnit va mikrokalsit ishlab chiqarish quvvatlari yo'lga qo'yildi.

3.4 Sanoat uchun muhim minerallar sohasini rivojlantirish.


Respublikada mazkur yo'nalishni rivojlantirish bo'yicha quyidagi muhim qadamlar qo'yildi.

Xususan, 2024-yilda O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining tegishli qaroriga muvofiq mamlakatning muhim xomashyo (CRM) salohiyatini birlashtirish, chuqur qayta ishlash va to'liq ro'yobga chiqarish bo'yicha milliy maqomga ega bo'lgan – “O'zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ tashkil etildi. Ushbu maqom “kon – metall – bozor” tamoyiliga asoslangan vertikal integratsiyalashgan model orqali amalga oshiriladi.

Kombinat oddiy kon qazib olish kompaniyasi emas – u qidiruv, qayta ishlash, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarishni o'zida mujassam etgan keng qamrovli sanoat ekotizimidir. Bugungi kunda kompaniya volfram, molibden, litiy, kobalt va grafit kabi 25 dan ortiq strategik xomashyo turlarini qamrab olgan 100 dan ziyod loyihalarni amalga oshirib, O'zbekistonni global muhim xomashyo bozorining yangi markazlaridan biriga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Sanoat uchun muhim minerallarga isqtiqbolli maydonlar va konlar





Tog'-kon sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

Bugungi kunda kombinatning Toshkent viloyatining Chirchiq shahridagi Nodir metallar va qattiq qotishmalar zavodi, Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on shahrida Ingichka boyitish fabrikasi hamda Navoiy shahrida Geotexnologik ishlab chiqarish majmualari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Jami xodimlar soni 1 605 nafar.

2024-yil davomida O'zbekiston Respublikasi Yevropa Ittifoqi, Koreya Respublikasi va AQSH bilan muhim foydali qazilmalar sohasida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qator memorandumlarni imzoladi. Xususan, 5-aprelda Yevropa Ittifoqi bilan qayta ishlash zanjirini shakllantirish, 14–16-iyun kunlari Koreya Respublikasi bilan sohaviy hamkorlik, hamda 16-sentyabrda AQSH bilan muhim minerallar bo'yicha hamkorlikni mustahkamlash yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Mazkur hujjatlar sohada xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun yangi istiqbollarni ochib berdi.

Xususan, investitsiya yo'nalishida AQSHning Cove Capital, Traxys, Denali Exploration Group, Gogreen Partners, American Resources Corporation va uning tarkibidagi Re Element Technologies kompaniyalari bilan investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha dastlabki kelishuvlarga erishilgan, Orion Resource Partners kabi investitsiya kompaniyalari bilan esa muloqotlar olib borilmoqda.

2024–2025-yillarda kombinat tomonidan jami 1,4 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi. Jumladan, 1 731,6 tonna molibden, 488,8 tonna volfram konsentrati, 54,1 tonna qattiq qotishmali mahsulotlar va 2 870,8 tonna keramik mahsulotlar ishlab chiqarish ta'minlandi.

Shuningdek, 2025-yil mart oyida Prezidentning tegishli qarori bilan O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan umumiy qiymati 1,6 milliard dollarga teng qisqa va o'rta muddatga mo'ljallangan 71 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Shu jumladan, 54 ta loyiha istiqbolli konlarni o'zlashtirish, sanoat chiqindilarini qayta ishlash, mavjud obyektlarni modernizatsiya qilish va yangilarini yaratishni hamda 17 ta loyiha esa geologiya-qidiruv ishlarini o'z ichiga oladi.

Kombinat tomonidan 2026-yilda Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on shahrida umumiy qiymati 11 million dollarga teng bo'lgan "Ingichka" koni volfram chiqindilarini qayta ishlash hajmini kengaytirish" investitsiya loyahasini ishga tushirish orqali mavjud ishlab chiqarish quvvatini 300 tonnadan 1 050 tonnaga oshirish hamda 100 ga yaqin yangi ish o'rnini yaratish rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, kombinat o'z oldiga ilmiy-tadqiqot ishlari, kadrlar tayyorlash va rivojlantirish, mahalliy sanoatni qo'llab-quvvatlash kabi muhim yo'nalishlar bo'yicha aniq maqsadlarni qo'ygan.





Tog'-kon sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

3.5. Bozor tendensiyalari va O'zbekiston minerallariga talab.

So'nggi yillarda jahon miqyosida O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tog'-kon sanoati mahsulotlariga talab ortib bormoqda. Mazkur tendensiya bir nechta asosiy omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, O'zbekiston oltin va kumush kabi qimmatbaho metallarning katta zaxiralariga ega, bu mamlakatni xalqaro qimmatbaho metallar bozorining nufuzli ishtirokchisiga aylantiradi.

Ikkinchidan, O'zbekiston mis, qo'rg'oshin va rux kabi muhim metallar, shuningdek, sanoat uchun muhim minerallar (Critical raw minerals) ishlab chiqaruvchi konlarga ega.

Uchinchidan jahon bozorlarida elektromobil, yadroviy energiya ishlab chiqarish sanoati, elektronika va qurilish tarmoqlarda ishlatiladigan asosiy metallarga ehtiyojning ortishi.

An'anaviy bozorlardan tashqari, O'zbekistonning foydali qazilmalariga qayta tiklanadigan energiya manbalari va yuqori texnologiyali sanoat kabi rivojlanayotgan tarmoqlarda ham talab ortib bormoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston tog'-kon sanoati mahsulotlari eksport geografiyasi kengayib boryapti va 30 dan ortiq davlatlarga eksport qilinmoqda.

Xususan, 2024-yilda O'zbekiston mahsulotlari yangi bozorlar – Gvineya, Senegal, Serbiya va Portugaliya kabi davlatlarga kirib borgan.

Shuningdek, sanoat uchun muhim minerallar sohasida ham yangi bozorlar ochilmoqda. Xususan, yangi tashkil etilgan 2024–2025-yillarda “O'zbekiston TNK” AJ tomonidan molibden, volfram va reny singari noyob metallar 88,3 mln AQSH dollari qiymatida eksport qilinib, ularning geografiyasi 9 dan ortiq mamlakatni qamrab oldi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, korxonalar tomonidan birinchi bor AQSH, Janubiy Koreya va Birlashgan Arab Amirliklariga mahsulotlar eksporti amalga oshirildi.

So'nggi yillarda O'zbekiston global minerallar bozoridagi raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida tog'-kon sanoati infratuzilma yaxshilash, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, bozorni diversifikatsiya qilish bo'yicha sa'y-harakatlarni kengaytirish va sohada qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Mazkur yo'nalishda global va mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish bo'yicha salmoqli natijalarga erishildi.



4.1. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

2024–2025 yillarda O‘zbekiston tog‘-kon sanoati va geologiya sohasida xalqaro hamkorlikni sezilarli darajada faollashtirdi.

Jumladan, 2025-yilda 30 ga yaqin xorijiy mamlakatlarga mamlakatimizga va 20 ga yaqin oliy darajadagi tashriflar amalga oshirildi.

Ushbu davrda asosiy e‘tibor bir necha strategik yo‘nalishga qaratildi:

birinchidan, sohada qonunchilik bazasi, xususan yer qa‘ridan foydalanish tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish;

ikkinchidan, muhim va strategik minerallar bo‘yicha xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

uchinchidan, geologiya, qayta ishlash, dekarbonizatsiya va ESG yo‘nalishlarida texnologik hamkorlikni kengaytirish;

to‘rtinchidan, kadrlar tayyorlash va ilmiy aloqalarni mustahkamlash.

2024–2025-yillarda xalqaro moliya tashkilotlari, xususan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB/EBRD) bilan hamkorlik ham alohida ahamiyat kasb etdi.

2024-yilning VI choragida O‘zbekiston Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi YTTB bilan hankorlikda “Yer qa‘ri to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

Mazkur hujjat xalqaro ilg‘or tajribalar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib,

yer osti boyliklariga egalik qilish va ularni tasarruf etish, shuningdek, yer qa‘ridan foydalanish hamda uni muhofaza qilish chog‘ida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.

Shuningdek, o‘tgan davrda Mineral resurslar zaxiralari hisobotlarining xalqaro standartlari qo‘mitasi (CRIRSCO) bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

2024-yil iyun oyida O‘zbekiston Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda CRIRSCO o‘rtasida anglashuv memorandumini imzolandi.

Ushbu hujjat geologik qidiruv natijalari, mineral resurslar va mineral zaxiralar bo‘yicha hisobotlarni xalqaro talablar asosida takomillashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Mazkur qadam O‘zbekistonning investorlar uchun tushunarli, shaffof va xalqaro bozorlarda qabul qilinadigan hisobot tizimiga o‘tish niyatini ko‘rsatdi. Bu, ayniqsa, xorijiy fondlar, strategik investorlar va xalqaro moliyaviy institutlar bilan ishlashda muhim omil hisoblanadi. Ya‘ni, hamkorlik faqat metodologik emas, balki investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiluvchi institutsional islohot sifatida ham baholanmoqda.

Sanoat uchun muhim minerallar sohasida investitsiyalarni jalb qilish, barqaror qiymat zanjirini yaratish, texnologik hamkorlik va boshqa bir qator muhim yo‘nalishlarni qamrab olgan, hukumatlar darajasida muhim hujjatlar imzolandi.

Xususan:

- 2024-yil 5-aprelda O'zbekiston va Evropa Ittifoqi hukumatlari o'rtasida muhim xomashyo (CRM) bo'yicha strategik hamkorlikni boshlash bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumi (MOU);

- 2024-yil 14-iyunda O'zbekiston va Koreya Respublikalari o'rtasida mineral resurslar sohasida oliy darajadagi o'zaro anglashuv memorandumi;

- 2024-yil 16-sentyabrda Amerika Qo'shma Shtatlari va O'zbekiston o'rtasida muhim minerallar bo'yicha hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumi shular jumlasidan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan bir qator davlatlar tegishli vazirliklari bilan idoralararo hujjatlar imzolandi. Shu jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi Kon-geologiya vazirligi hamda Germaniya Federativ Respublikasi Iqtisodiy ishlar va iqlim o'zgarishi bo'yicha federal vazirligi o'rtasida mineral resurslar bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya (Sentyabr, 2024-yil);

- AQSHning Kolorado konchilik maktabi (Colorado School of Mines) bilan zamonaviy konchilik-geologiya kompetensiyalar markazini tashkil etish to'g'risida kelishuv;

AQSHga Oliy darajadagi tashrif (2025-yil, sentyabr)



IV

Xalqaro hamkorlik va investitsiyalarni jalb qilish

Bundan tashqari, “Uzbek Overseas Geology Company” MCHJ hamda Mo‘g‘uliston, lordaniya va Afg‘oniston davlatlari bilan erishilgan kelishuvlarni alohida sanab o‘tish joiz.

Yuqorida sanab o‘tilgan hamkorlik hujjatlari O‘zbekiston uchun bir nechta jihatdan muhim bo‘ldi:

birinchidan, mamlakat sanoat uchun muhim minerallar bozorida ishonchli hamkor sifatida ko‘rina boshladi;

ikkinchidan, xususi investorlarni jalb qilish uchun siyosiy va institutsional signal berildi;

uchinchidan, qazib olishdan tortib qayta ishlashgacha bo‘lgan zanjirda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish masalasi oldinga chiqdi;

to‘rtinchidan, sohada ilg‘or texnologiyalar va so‘nggi ilm-fan yutuqlarini qo‘llash bo‘yicha imkoniyatlarga yo‘l ochildi;

beshinchidan, sohada xalqaro standartlarga mos yetuk kadrlarni tayyorlashning ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratildi.

Bundan tashqari, YTTB hamda Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi o‘rtasida geologiya va tog‘-kon yo‘nalishida, xususan strategik xomashyo bazasi, tartibga solish tizimini takomillashtirish yuzasidan hamkorlik ko‘rsatish bo‘yicha hamkorlik loyihalari amalga oshirildi.

Bu shuni ko‘rsatadiki, xalqaro hamkorlik endi faqat resurs qazib olish bilan cheklanmay, balki yashil transformatsiya, energiya samaradorligi,

uglerod izini kamaytirish va ESG boshqaruviga yo‘nalishlariga ham qaratilmoqda.

2024-2025-yillarda xalqaro investorlarga O‘zbekistonning mineral salohiyatini faol targ‘ib qilish ishlari kuchaydi.

Jumladan, Toshkent xalqaro investitsiya forumi (TIIF), MINEX Central Asia-2025, PDAC, INNOPROM, Future Minerals Forum, UIMF kabi xalqaro forum va konferensiyalar doirasida sohada amalga oshirilgan islohotlar, xususan yaratilgan investitsiya muhiti va loyihalar targ‘ibotiga bag‘ishlangan muhim tadbirlar tashkil qilindi.

Xalqaro hamkorlikning yana bir muhim yo‘nalishi — ilmiy-ta‘limiy hamkorlik bo‘ldi. 2025-yilda Geologiya fanlari universiteti delegatsiyasining Germaniyadagi hamkor muassasalarga tashrifi davomida akademik mobillik, qo‘shma memorandum va ilmiy hamkorlik o‘rnatildi.

Umuman olganda, 2024–2025 yillarda O‘zbekistonning tog‘-kon sanoati va geologiya sohasidagi xalqaro hamkorligi bir martalik tashqi aloqalar emas, balki tizimli strategiya ko‘rinishini oldi.

Bir tomondan, CRIRSCO, AQSh va EBRD bilan hamkorlik orqali normativ, investitsion va institutsional baza mustahkamlanmoqda.

Ikkinchi tomondan, Xitoy, xalqaro forumlar va xususi kompaniyalar bilan aloqalar orqali geologik qidiruv, qazib olish va qayta ishlash loyihalari uchun amaliy sherikliklar shakllanmoqda.

Uchinchi tomondan esa, universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Bugun O'zbekiston tog'-kon sanoati va geologiya sohasida xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi deb ishonch bilan aytish mumkin. Ayniqsa, sanoat uchun muhim minerallar, xalqaro standartlarni joriy qilish, ESG va yashil transformatsiya yo'nalishlarida sezilarli yutuqlarga erishildi.

4.2. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Investitsiya dasturi doirasida 2024-2025-yillarda umumiy qiymati 30 milliard dollarga yaqin 60 ta loyiha doirasida 6,1 milliard dollar (*shundan 5,5 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar*) investitsiyalar o'zlashtirildi.

Bunda, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi loyihalari doirasida 1,6 milliard dollar (*shundan 1,6 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar*) hamda kon-metallurgiya korxonalarini tomonidan 4,5 milliard dollar (*shundan 3,9 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy*

investitsiyalar va kreditlar) investitsiya mablag'lari o'zlashtirildi.

2025-yilda Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan investitsiyalarni jalb etish borasida sezilarli o'sish kuzatilganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, tog'-kon sanoati korxonalarini tomonidan jalb qilingan investitsiyalar hajmi o'tgan yilga nisbatan kamaygan bo'lsa-da, yuqori darajada saqlanib qolgan.

Xususan, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan jalb qilingan investitsiyalar hajmi 2024-yildagi 571,8 million dollardan 2025-yilda 1 034,9 million dollarga yetgan. Bu esa xalqaro hamkorlikni kengaytirish, investitsion imkoniyatlarni faol targ'ib qilish hamda tarmoqda yangi strategik loyihalarni amalga oshirish borasidagi ishlar jadallashganini aks ettiradi.

Investitsiyalar dinamikasi mazkur tarmoqning mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega ekanligini namoyon etadi hamda investitsion muhitni yaxshilash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan izchil islohotlarni aks ettiradi.

2024-2025-yillarda investitsiyalarni jalb qilish



Togʻ-kon sanoatida raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish maqsadida 2024-2025-yillarda “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” Strategiyasiga muvofiq, Togʻ-kon sanoati va geologiya sohasini raqamlashtirish va sunʼiy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali sohadagi loyihalarning samaradorligini oshirish boʻyicha tizimli ishlar olib borildi. Shu jumladan,

1. Yer qaʼri uchastkalari maʼlumotlar bazasini shakllantirish maqsadida “Yagona integrator – Uzinfocom” bilan birgalikda “Geomonitoring” axborot tizimi joriy etildi hamda 2 mingdan ortiq foydali qazilma uchastkalari toʻgʻrisida maʼlumotlar (*joylashgan joyi, qazilma turi, zaxirasi, yer qaʼri foydalanuvchilari va boshqalar*) shakllantirildi.

2. Togʻ-kon sanoati va geologiya sohasida koʻrsatiladigan davlat xizmatlari va litsenziya berish jarayonlarining 7 tasi raqamlashtirildi hamda geologiya maydonlarini onlayn auksionlar orqali sotuvga qoʻyish toʻliq elektron shaklda yoʻlga qoʻyildi.

3. Yer osti suvlari maʼlumotlar


bazasini shakllantirish boʻyicha axborot tizimi joriy etilib, 37 mingdan ortiq foydalanishdagi va 2 mingdan ziyod kuzatuv quduqlari toʻgʻrisida maʼlumotlar bazasi (*resursi, zaxirasi, sathi, kimyoviy tarkibi*) shakllantirildi.

Axborot tizimi yordamida 25 ta “ogʻir” tumanda quduqlarni qazishga moratoriy joriy etildi, 3,1 mingdan ziyod gidrogeologik xulosalar tayyorlandi.

4. Buxoro–Xiva va Hisor oldi neft-gazli regionlarining basseyn modeli ishlab chiqilib, 300 dan ziyod uglevodorod konlari va 2 mingdan ortiq izlov-qidiruv quduqlarining geologik-geofizik maʼlumotlari raqamlashtirildi. 15 ta neft va gaz konlari hamda istiqbolli maydonlarning 3D modellari yaratildi.

5. Togʻ-kon sanoati korxonalari tomonidan texnologik jarayonlarni boshqarish, marksheyderlik ishlarida dronlardan foydalanish, karyer jarayonlarini masofaviy boshqarish, karyer va kon-transport vositalarining onlayn monitoringi hamda videotahlil asosida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini taʼminlash tizimlari joriy qilindi.

“Oʻzbek geologiya qidiruv” Ajda geologik maʼlumotlarni raqamlashtirish



Shuning bilan birga, O'zbekistonning yirik kon-metallurgiya korxonalarini ham raqamlashtirish jarayoniga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. 2024-2025-yillarda yirik kon-metallurgiya korxonalarida raqamlashtirish ishlari jadal davom ettirildi.

Xususan, "Navoiy KMK" AJning 2023-2025-yillarga mo'ljallangan raqamli transformatsiya dasturi amalga oshirildi. Bunda, asosiy hamkor sifatida Boston Consulting Group (BCG) (AQSh) xalqaro kompaniyasi ishtirok etdi.

Kombinatning raqamlashtirish strategiyasi zamonaviy axborot texnologiyalari va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish orqali korxonada faoliyatining samaradorligi, shaffofligi va barqarorligini oshirishga qaratilgan AKT tashabbuslari doirasida kombinat mutaxassislari tomonidan transport, ishlab chiqarish jarayonlari, moliya, xodimlar, logistika, energiya resurslari, uskunalarni ta'mirlash va buxgalteriya hisobi uchun korporativ boshqaruv tizimlarini ishlab chiqildi va joriy etildi.

Ushbu yechimlar barcha asosiy jarayonlar, xususan odatiy operatsiyalarni avtomatlashtirish, qo'l mehnatini kamaytirish, ma'lumotlarni qayta ishlashni tezlashtirish va vazifalarni bajarishni nazorat qilish imkonini berdi.

Natijada 2024 va 2025-yil yakunlariga ko'ra, "Navoiy KMK" AJ respublika korxonalarini orasida raqamli rivojlanish bo'yicha milliy reytingda qatorasiga ikki marotaba birinchi o'rinni egalladi.

Bu o'z o'rnida, tashkilotda raqamlashtirishning tizimli yondashuvi samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, 2024-yilda kombinat tomonidan xalqaro maslahatchilar bilan hamkorlikda 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun Raqamli transformatsiya strategiyasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

"Olmaliq KMK" AJ tomonidan 2024-2025-yillarda keng ko'lamli raqamlashtirish, avtomatlashtirish va axborot xavfsizligi dasturini amalga oshirdi. ISO/IEC 27000, PAM, LIMS, SCADA, NAC, 1C:ERP, Power BI va boshqa bir qator raqamli yechimlar joriy etildi va modernizatsiya qilindi. Bu xavfsizlik, shaffoflik, ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi va ishlab chiqarishni boshqarish samaradorligini oshirdi.

Natijada 2024 va 2025-yil yakunlariga ko'ra, "Olmaliq KMK" AJ respublika korxonalarini orasida raqamli rivojlanish bo'yicha milliy reytingda mos ravishda 4 va 3-o'rinlarni egalladi.

"O'zmetkombinat" AJda ham raqamlashtirish yo'nalishida ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish, samaradorlikni oshirish hamda inson omilini kamaytirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Natijada kombinat 2024 va 2025-yillarda respublika korxonalarini orasida raqamli rivojlanish bo'yicha milliy reytingda mos ravishda 8 va 7-o'rinlarni egalladi.

Kon-geologiya vazirligi hamda 20 ta tizimosti korxonalarida korrupsiyaga qarshi – Komplayens tuzilmalari tashkil etildi, huquq-tartibot organlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida 20 dan ortiq tartib-qoidalar (“Korrupsiyaga qarshi siyosat”, “Odob-axloq kodeksi”, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”, “Sovg‘a olish va berish siyosati” va h.k.) qabul qilindi.

Korrupsiyaning oldini olishda jamoatchilik bilan aloqa o‘rnatish maqsadida “ishonch telefoni” va telegram bot kanali ishga tushirildi. Natijada tizimda 2024-2025-yilda 500 dan ortiq murojaatlar ko‘rib chiqilishi ta‘minlandi.

Mazkur yo‘nalishda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash maqsadida ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb-saytlari orqali sohaga oid 740 dan ortiq materiallar joylashtirilgan.

Soha xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularni huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida 450 dan ortiq seminar va profilaktik tadbirlar o‘tkazildi.

Xaridlar jarayonda kontragentlar o‘rganilishi natijasida 40,6 mlrd. so‘m mablag‘larning samarasiz ishlatilishining oldi olindi.

Vazirlikda tashkil etilgan “Situatsion markaz” va Hisob palatasining “Masofaviy

audit” portali orqali 6,6 mlrd. so‘m mablag‘ maqbullashtirildi, 1500 dan ortiq risklar ko‘rilib, tegishli choralar asosida bartaraf etilgan.



Kon-geologiya vazirligi va 7 ta tizim korxonasi Korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi bo‘yicha xalqaro muvofiqlik ISO 37001 sertifikatini qo‘lga kiritdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan o‘tkazilgan reyting baholash natijalariga ko‘ra, Kon-geologiya vazirligi so‘ngi uch yilda vazirliklar orasida 1-o‘rinni egallab kelmoqda.

Sohada ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari va litsenziya berish jarayonlarining 7 tasi raqamlashtirildi. “Geomonitoring” axborot tizimi orqali yer qa‘ridan foydalanish jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish natijasida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi xavflar kamaytiriladi.

Shuningdek, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi markaziy apparati hamda tarmoq tashkilotlari xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish, ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida muntazam ravishda tadbirlar o‘tkazilib kelinmoqda.

7.1 Tog'-kon sanoatida ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilishga qaratilgan sa'y-harakatlar

Bugungi global iqlim o'zgarishi sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilish, barcha sohalarda ekologik talablarga rioya etish o'ta muhim sanaladi.

Shu boisdan mazkur yo'nalishdagi vazifalar "O'zbekiston — 2030" strategiyasida qa'tiy belgilab o'tilgan.

Strategiyaga ko'ra, kon-metallurgiya sanoatida ekologik talablar va atrof-muhit muhofazasi me'yorlarini xalqaro standartlar asosida belgilash dasturini ishlab chiqish, bunda atrof-muhitga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarni ekologik talablar doirasidan oshmasligini ta'minlash va ekologik menejment tizimini joriy etish choralarini nazarda tutish belgilangan.

2024-2025-yillarda kon-metallurgiya sanoatida ekologik talablar va atrof-muhit muhofazasi me'yorlarini xalqaro standartlar asosida belgilash dasturi ishlab chiqilgan.

Dasturga asosan sanoat korxonalarida atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan quyidagi maqsadlar belgilab olingan:

- atrof-muhit ifloslanishining oldini olish;
- texnogen ta'sirdan zararlangan yerlarni qayta tiklash;
- moddiy, energetik, texnik, ekologik va moliyaviy resurslar sarfini kamaytirgan holda mineral xom ashyodan to'liq foydalanish;
- ISO 14001:2015 xalqaro standarti asosida ekologik menejment tizimining samarali ishlashini ta'minlash va takomillashtirish.

Shuningdek, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida quyidagilar amalga oshirildi.

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda kon-metallurgiya korxonalari tomonidan 2024-2025-yillar mobaynida jami 2,9 million tupdan ziyod manzarali, mevali va buta ko'chatlari ekildi.

Toshkent viloyatida "Yashil makon" loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar



Shuningdek, Vazirlik tomonidan Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanining tog' va tog'oldi hududlarida 65 gektar yer maydonida (7 ta uchastka) 32,6 ming tup ko'chatlardan iborat "Vazirlik bog'i" barpo etildi.

Bundan tashqari, "Yashil belbog'" loyihasi doirasida atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning yuqori va o'rta darajadagi xavfli yirik sanoat korxonalari ("Olmaliq KMK" AJ, "Navoiy KMK" AJ, "Navoyiuran" DK, "O'zmetkombinat" AJ) tomonidan o'z va tutash hududlarida 5 gektardan kam bo'lmagan yer maydonlarida ko'chat ekib, "yashil belbog'"larni barpo etish choralari ko'ridi.

Ekologik toza kon-metallurgiya sohasini yaratish maqsadida 2024-2025-yillarda ham kon-metallurgiya korxonalari tomonidan sanoat chiqindilarini yig'ish, zararlantirish, yo'q qilish hamda qayta ishlash borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, korxonalarda atrof muhitga ifloslantiruvchi moddalarni tashlash turg'un manbalarida avtomatlashtirilgan nazorat tizimi, yer osti suvlari ifloslanishi holatini tizimli monitoring qilish amaliyoti, ekologik menejment tizimi hamda sanoat chiqindi suvlarini tozalash texnologiyalari joriy etildi.

Kon-metallurgiya korxonalari tomonidan atrof muhitni muhofaza qilish, yerlar ifloslanishi va degradatsiyasining oldini olish, suv resurslarini tejash, atmosfera havosiga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini kamaytirish bo'yicha uzok

muddatli ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish strategiyalari ishlab chiqildi.

Xususan, "Olmaliq KMK" AJda atrof-muhitni muhofaza qilish doirasida quyidagi yo'lishlarda ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

- ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarini kamaytirish yo'nalishida zavod obyektlarida chang va gazni tozalash uskunalarida 25,6 milliard so'mga teng rejali profilaktik ta'mirlash ishlari olib borildi;

- suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha ishlarni davom ettirish, tabiiy manbalarga yukni kamaytirish va suvdan qayta foydalanish ulushini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Bunda 13 milliard so'm miqdordagi turli diametrli suv quvurlari va suv tozalash stansiyalarida rejali profilaktik ta'mirlash ishlari olib borildi;


- 2-sonli mis boyitish fabrikasining 1 300 ming tonna metallurgiya ishlab chiqarish chiqindi shlaklari qayta ishlandi;

- 1,9 milliondan ortiq daraxt ko'chatlari ekildi.

Shuningdek, mazkur yo'nalishlarda "Navoiy KMK" AJda ham bir qator salmoqli ishlar qilindi. Jumladan:

- 2,5 million kub.metr hajmda maishiy va sanoat chiqindi suvlari tozalandi va qayta ishlatildi;

- samaradorligi 99,5 foizga teng bo'lgan 11 dona yangi chang ushlagich uskunalarini o'rnatildi;



- GMZ-7 da 16 million tonna texnogen chiqindilar qayta ishlandi;

2024-2030 - yillarda suv resurslarini tejash va suvdan oqilona foydalanish dasturi qabul qilindi;

Bundan tashqari, kombinat tomonidan "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish" kompleks axborot tizimi ishlab chiqildi va sinov rejimida joriy etildi.

Ushbu tizim atrof-muhit monitoringining asosiy sohalarini, jumladan, emissiya va qayta ishlash statistikasi, havo monitoringi, suv resurslari, chiqindilarni boshqarish, shuningdek, yashil hududlarni hisobga olish va pasportlashtirishni qamrab oladi.

7.2. Sohada barqaror rivojlantirish standartlarini joriy qilish.

O'zbekiston tog'-kon sanoati korxonalarida investorlar va kapital bozorlardan mablag' jalb qilish hamda xalqaro standartlarni o'zlashtirish maqsadida atrof muhit, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tartiblarini joriy etish jarayonlari 2020-yilda boshlangan. Quyida korxonalar kesimida ayrim erishilgan natijalar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

«Olmaliq KMK» AJda:

- 2020-yildan buyon har yili barqaror rivojlanish bo'yicha hisobot (Sustainable Development Report) tayyorlab kelinmoqda. Ushbu hisobot "Katta to'rtlik" kompaniyalaridan biri tomonidan mustaqil verifikatsiyadan

o'tkazilib, uning ishonchligi va xalqaro standartlarga muvofiqligi tasdiqlanmoqda;

- 2025-yilning fevral oyida xalqaro Sustainable Fitch agentligi "Olmaliq KMK" AJ barqaror rivojlanish reytingini (Entity Rating) "3" darajasida tasdiqladi va kompaniyaning umumiy baholanish mezonini 56 ball deb bahollandi;

- kombinatning 2040-yilgacha mo'ljallangan iqlim strategiyasi ishlab chiqildi va hozirgi vaqtda tasdiqlash jarayoni amalga oshirilmogda;

- 2024-yil uchun Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) S1 va S2 xalqaro standartlari asosida hisobot loyixasi tayyorlandi;

- KfW IPEX-Bank GmbH bankining talablariga muvofiq "Worley Parsons" kompaniyasi bilan birgalikda Yangi mis eritish majmuasi qurilishi loyihasi doirasida atrof-muhit, aholi va sog'liqqa ta'sirni baholash (ESIA) hisoboti tayyorlandi;

- So'nggi yillarda kombinat tomonidan quyidagi xalqaro standartlar, shu jumladan, ISO 9001:2015 — Sifat menejmenti tizimi, ISO 14001:2015 — Atrof-muhitni boshqarish tizimi, ISO 45001:2018 — Sog'liqni saqlash va mehnat xavfsizligini boshqarish tizimi, ISO 50001:2018 — Energiya menejmenti tizimi, ISO 37001:2016 — Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi joriy etilgan.

"Navoiy KMK" AJda:

- 2024-yilda kombinatga S&P, Fitch Ratings reyting agentliklari tomonidan



kredit reytingi, shuningdek S&P tomonidan BB+ darajasidagi kreditga layoqatlilik (SACP) reytingi berildi. Bu O'zbekiston kompaniyalariga berilgan eng yuqori reytingdir;

- Kombinat 2024-yilda ilk marta, ikki transhda 4 va 7 yil muddatga umumiy qiymati 1 milliard dollarlik debyut va 2025-yilda 500 milliard dollarga teng yevroobligatsiyalarni chiqardi;

- inklyuziv korporativ madaniyatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishi sifatida metallurgiyada xotin-qizlarni rivojlantirish maqsadida kombinat 2024-yilda "International Women in Mining" ("IWIM" – tog'-kon sanoatidagi Xalqaro ayollar tashkiloti) a'zosiga aylandi.

"Navoiyuran" DKda:

- 2022-2023–yillar uchun Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlandi va tasdiqlandi;

- ACCA tomonidan "Approved Employer" maqomi olindi, bu moliya sohasi xodimlarining yuqori darajadagi professionalligini tasdiqlaydi;

- Standard & Poor's Global Ratings tomonidan korxonaga BB-/Stable xalqaro kredit reytingi berildi, bu uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirdi;

- PricewaterhouseCoopers bilan hamkorlikda ESG-diaagnostikasi o'tkazildi, 2022 va 2023- yillar uchun barqaror rivojlanish hisobotlari Global Reporting Initiative (GRI) talablariga muvofiq tayyorlandi;

- ESG yo'l xaritasi ishlab chiqildi va Sustainable Fitch xalqaro reyting agentligidan 55 ball bilan ESG reytingi

olindi;

- Korn Ferry bilan hamkorlikda xodimlarni rivojlantirish tizimini transformatsiya qilish dasturi ishlab chiqildi hamda greyding va yangi tashkiliy tuzilmalar tuzildi.

"O'zmetkombinat" AJ 2024-yil boshida CDP (Carbon Disclosure Project - ESG reyting provayderi) tomonidan "C" reytingiga ega bo'ldi. 2025-yilda mazkur reyting "B" darajasiga oshirildi.

Yangi tashkil qilingan "O'zbekiston texnologik metallar kombinati" AJda Integratsiyalashgan boshqaruv tizimi sifat, ekologiya, sog'liqni saqlash va mehnat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi siyoati ishlab chiqildi. Shuningdek, ISO 9001: Sifat menejmenti, ISO 14001: Ekologik boshqaruv va ISO 45001: Texnika xavfsizligi standartlari joriy qilindi.

Barqaror rivojlanish faoliyati doirasida korxonalar tomonidan ESG standartlarini qo'llash hamda xalqaro standartlarini joriy qilish yo'nalishida olib borilayotgan ishlar bo'yicha batafsil ma'lumotlar korxonalar rasmiy veb-sahifalarida joylab borilmoqda.

Shuningdek, Kon-geologiya vazirligida risklarni boshqarish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komplayens nazorati tizimlari yo'lga qo'yilgan. Mazkur yo'nalishlarda amalga oshirilgan ishlar natijasida davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalariga ko'ra Kon-geologiya vazirligi 2024 va 2025-yillarda mos ravishda birinchi va ikkinchi o'rinlarni egalladi.

Sohada yetuk kadrlarni tayyorlash maqsadida vazirlik tizimida 4 ta Oliy ta'lim muassasalar mavjud bo'lib, jami 74 ta bakalvriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 5615 nafar kunduzgi va 7228 nafar sirtqi hamda 25 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha 295 nafar, jami 13 787 nafar talabalar tahsil olmoqda. Jumladan:

Geologiya fanlari universitetida jami 1 883 nafar talaba tahsil olmoqda 12 ta bakalvriat ta'lim yo'nalishida 737 nafar kunduzgi va 1 121 nafar sirtqi shaklda, 7 ta magistratura mutaxassisligida 25 nafar. 2024-2025 o'quv yilida 6 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha 178 nafar hamda 4 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha 5 nafar talaba o'qishni tamomlab, tayyor kadrlar bo'lib yetishib chiqdi.

O'quv jarayoni kredit-modul tizimi asosida to'liq yo'lga qo'yilgan bo'lib, 6 ta kafedralarga vazirlik tizimidagi korxonalar hamda universitet tarkibidagi ilmiy-tadqiqot institutlardan tajribali

120 ga yaqin professor-o'qituvchilar jalb etilgan.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida 5 ta fakultet va 21 ta kafedra faoliyat olib borib, jami 10743 nafar talaba tahsil oladi, shundan kunduzgi ta'lim shaklida 4293 nafar talaba 25 ta bakalvriat ta'lim yo'nalishida, sirtqi ta'lim shaklida 5732 nafar talaba, 21 ta bakalvriat ta'lim yo'nalishida, masofaviy ta'lim shaklida 15 ta talaba talaba 1 ta bakalvriat ta'lim yo'nalishida, kechki ta'lim shaklida 433 ta talaba 24 ta bakalvriat ta'lim yo'nalishida va 270 nafar talaba 23 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha tahsil olmoqda.

2024-2025-yillarda bakalvriat ta'lim yo'nalishlarini jami 1696 nafar talaba va magistratura mutaxassisligi bo'yicha jami 49 nafar bitiruvchilar o'qishni tamomlab ulardan 99% bandligi ta'minlandi.

Geologiya fanlari universitetida diplom topshirish marosimi



Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti “MISIS”ning Olmaliq shahridagi filialida 2024-2025 o‘quv yillarda jami 960 nafar talaba tahsil olib, shundan spetsialitet ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha 585 nafari kunduzgi va 375 nafar sirtqi shaklni tashkil qiladi. Shundan, 175 nafar talabalar o‘qishni muvaffaqiyatli tamomlab (96%) ish bilan ta‘minlandi.

Toshkent shahridagi Piza universiteti filialida 2024-2025 o‘quv yillarda jami Geologiya yo‘nalishida jami 201 nafar talaba tahsil olib, joriy yil 4-bosqichdagi 47 nafar talaba bitirishi kutilmoqda va ularning 90 foizi hozirgi kunda o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ish bilan ta‘minlangan.

Sohada innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo‘nalishida ham o‘tgan yillarda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, **“Geologiya va geofizika instituti” Dmda** 2024-2025 – yillarda 11 ta davlat dasturi, 7 ta innovatsion (amaliy, fundamental) grant, 4 ta xalqaro (EU Erasmus+, UNESCO (GEF, GLOFKA), GIZ) grant va hamkor tashkilotlar bilan 25 ta xo‘jalik shartnomalari (“Navoiy KMK” AJ, “O‘zTMK” AJ, “O‘zbekgeologiyaqidiruv” AJ) tusidagi ilmiy loyihalar bajarildi.

“Mineral resurslar instituti” DM institut tomonidan 2024-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta to‘ldirish Davlat dasturi doirasida hamda Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Mineral resurslar instituti” DMning obyektlar bo‘yicha

geologik topshiriqlariga muvofiq 4 ta ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha jami 17 ta davlat byudjeti loyihalari doirasida ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Shundan, 16 tasi ilmiy-tadqiqot loyihalari hamda 1 tasi “Geologiya va mineral resurslar” jurnalini tahrir qilish va nashr etish loyihasi amalga oshirildi.

“Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti” DMda O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan 2024-yilga mo‘ljallangan mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash Davlat dasturida belgilangan geologik vazifalarga muvofiq

“Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti” DMda 9 ta, Xo‘jalik shartnomalari bo‘yicha 150 dan ortiq hamda 2 ta grant loyiha doirasida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

Ushbu loyihalar doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida tayyorlangan ilmiy tavsiyalar asosida 2024 – yilda 2,2 milliard m³ zaxiraga ega bo‘lgan yangi 3 ta, 2025 – yilda 9.1 milliard m³ tabiiy gaz zaxirasiga 5 ta uglevodorod koni ochishga erishildi.

“Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi instituti” Dmda 2024-2025 yillarda Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish davlat dasturi doirasida 5 ta ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha 10 ta ilmiy-tadqiqot loyihalari amalga oshirildi. Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan moliyalashtiriladigan 3 ta loyiha doirasida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

9.1 Ishlab chiqarish hajmini o‘stirish

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta‘minlashga qaratilgan qator maqsadlar belgilangan.

Kon-metallurgiya sanoati mamlakat iqtisodiyotining drayver sohalaridan biri hisoblanganligi sababli mazkur maqsadlarga erishishda tog‘-kon sanoati va geologiya sohasining o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, yangilangan “O‘zbekiston-2030” strategiyasida 2030-yilga qadar sanoatda texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2,5 barobarga oshirish, yalpi ichki mahsulot hajmini 240 milliard dollardan oshirish va aholi jon boshiga daromadlarni 5 800 dollardan oshirish belgilangan.


Shuningdek, tog‘-kon sanoatida mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltin – 1,5 barobar, kumush – 3 barobar, uran

– 3 barobar oshirish, kon zaxiralarini baholashda ilg‘or xalqaro standartlarni keng joriy qilish kabi ko‘plab maqsadlar belgilangan.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun tog‘-kon sanoati va geologiya sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish, ishlab chiqarish samaradorligini yanada jadallashtirish, mineral xomashyo bazasini rivojlantirish hamda boshqa tizimli islohotlarni amalga oshirish talab etiladi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston 2026-yilda ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini barqarorligini saqlab qolish va o‘stirish maqsad qilingan. Bunda Respublikada oltin ishlab chiqarish hajmini deyarli 2025-yilga nisbatan 5,1 tonnaga, kumush – 19,8 tonna, molibden – 140 tonna, volfram – 125,6 tonna, hamda mis - 11 ming tonnaga o‘stirish rejalashtirilgan.

2030-yilga qadar qimmatbaho va rangli metallar hamda uran ishlab chiqarish



9.2. Sohada qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish

2024-yil oktyabr oyida O'zbekistonda 22 yil davomida mamlakatda amal qilib kelgan "Yer qa'ri to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

Mazkur hujjatning qabul qilinishi O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, sohaga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish hamda investorlar ishonchini oshirish bo'yicha muhim qadam bo'ldi.

2026-yilda ham sohada investitsiyalar muhitini yaxshilash, soliq tizimi takomillashtirish, davlat regulyatorlik funksiyasini rivojlantirish, ochiqlik va shaffovlik tizimini ta'minlash kabi muhim yo'nalishlarda normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy qilish yuzasidan ishlar izchil davom ettiriladi.

Xususan, "Yer qa'ri to'g'risida"gi Qonunidan kelib chiqib bir qator qonunosti hujjatlari ishlab chiqiladi. Jumladan:

- qattiq foydali qazilmalarning asosiy turlaridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnomalar berish tartibi va foydalanish shartlari to'g'risida;

- yer qa'ridan foydalanish sohasida kadastr kvadratlarini yuritish to'g'risida;

- konchilik faoliyati bilan bog'liq obyektlarni yopish va yer uchastkasini rekultivatsiya qilish tartibi to'g'risida;

- uglevodorod resurslarini qidirish va qazib olish huquqi uchun ruxsatnomalar berish tartibi va shartlari to'g'risida;

- yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish natijalari bo'yicha yakuniy hisobotlarni qabul qilish va birlamchi geologik axborotlar reyestirini yuritish tartibi to'g'risida;

- yer qa'ridan foydalanish sohasidagi axborotdan foydalanish imkoniyatini berish va realizatsiya qilish tartibi to'g'risida;


- yer qa'ridan foydalanish oqibatlarini tugatishga doir hamda moliyaviy kafolatlari to'g'risida;

- yer qa'ri foydali qazilmalarini qazib olish jarayonida qazib olingan va yo'qotilgan foydali qazilmalar zaxiralarini yer qa'ridan foydalanuvchining hisobidan chiqarish tartibi to'g'risida;

- yer qa'ri geologik jihatdan o'rganish, undan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida;

- yoydali qazilmalar joylashgan maydonlarda imorat qurishga ruxsat berish tartibi to'g'risida va boshqalar.

Bundan tashqari, sohada bir qator xalqaro standartlarni joriy qilish bo'yicha zarur qonunchilik va meyoriy hujjatlar, shuningdek, o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan strategik rejalashtirish hujjatlari ishlab chiqiladi hamda bosqichma-bosqich joriy qilinadi.



9.3 Raqamli geologik ma'lumotlar bazasini yaratish

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan raqamlashtirish bo'yicha 2026-yilda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

1) 2026-2030-yillarga mo'ljallangan "Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini raqamlashtirish strategiyasi"ni ishlab chiqish;

2) Geologik hisobotlar va raqamli xaritalar asosida "Geologik ma'lumotlar milliy bazasi"ni yaratish;

3) Hidrogeologiya sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

4) Sohaga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlarini o'rganish hamda pilot loyihalarni amalga oshirish va boshqalar.


Yuqorida sanalgan loyiha doriasida eng muhim loyihalardan biri - ochiq geologik ma'lumotlar bazasini (Geodata) raqamlashtirish va interaktiv geologik xaritanı yaratish O'zbekiston tog'-kon va geologiya sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu maqsadda 2026-yilda Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan geologik ma'lumotlar bazasi yaratish loyahasini amalga oshiriladi.

Mazkur loyiha qiymati 8 million dollarni tashkil qilib, 2024-2028-yillar oralig'ida amalga oshirilishga mo'ljallangan.

O'zbekiston mazkur loyihani amalga oshirish orqali tog'-kon sanoati va geologiya sohasining

Geodata arxitekturasi



investitsiya jozibadorligini oshirish, geologik ma'lumotlari investorlarga ochiqqligini ta'minlash va u orqali sohaga investitsiyalar oqimini Keskin oshirish maqsad qilgan.

Geologik ma'lumotlar bazasi quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Turli xil mashstablardagi geologik xarita (vektor/raqamli);

2. Geologik o'rganish ishlari (masofdan zondlash, geofizik, geokimyoviy, tog'-kon ishlari va boshqalar) natijalari;

3. Tektonik xaritalar, magnetik /petrologik o'rganishlar natijasi hamda ma'dan minerallari tarkibi haqidagi ma'lumotlari;

4. Geologik ma'lumotlarni uyg'unlashtirishga imkon beruvchi, istiqbolli konlarni aniqlashni osonlashtiradigan va geologik salohiyatni namoyon etuvchi integratsiyalangan funksiyalar.

2026-yilda respublika hududining 1:200 000 mashtabda to'liq raqamli geologik xaritalar to'plami yaratiladi.

9.4 Yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish

2026-yil uchun tasdiqlangan investitsiya dasturiga muvofiq Kon-geologiya vazirligi tizimi bo'yicha jami 73 ta loyiha doirasida 2 milliard dollarga yaqin xorijiy investitsiya mablag'larini o'zlashtirish rejalashtirilmoqda.

Jumladan, vazirlik tomonidan geologiya yo'nalishida 53 ta loyiha doirasida 1 203,5 million dollar xorijiy investitsiya mablag'larining o'zlashtirilishi rejalashtirilgan bo'lsa, kon-metallurgiya korxonalarini tomonidan 20 ta loyiha doirasida 770,4 million dollar xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish maqsad qilingan.

Ushbu investitsiyalar barqaror iqtisodiy o'sishga ximat qiluvchi mineral xomashyo bazasini rivojlantirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va mavjudlarini qayta rekonstruksiya qilishga xizmat qilibgina qolmay, pirovardida, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi farovonligiga xizmat qilishda muhim ro'l o'ynaydi.

2026-yilda umumiy qiymati 1 160,0 million dollar bo'lgan 13 ta investitsiya loyihalarini ishga tushirishni rejalashtirilmoqda.

Jumladan,

“Navoiy KMK” AJ tomonidan “Ko'kpatas” va “Dovgiztov” oltin konlarida ma'dan qazib olish (III-navbati) investitsiya loyihasi;

“Olmaliq KMK” AJ tomonidan “Yoshlik-I” konini o'zlashtirish

doirasida yangi ohak zavodini qurish loyihalari ishga tushiriladi.

Shu bilan birga geologiya yo'nalishida 6 ta loyihalarni ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Bunda:

- Angrendagi “Apartak-3” ko'mir konini o'zlashtirish (2-bosqich) orqali yiliga 1 mln tonna ko'mir qazib olish yo'lga qo'yiladi;

- Piskentdagi “Qorasoy” hamda Tomdidagi “Qinir” konlarini o'zlashtirish orqali yiliga 3 tonna oltin ishlab chiqarilishiga erishiladi;

- Kattaqo'rg'ondagi “Ingichka” volfram konini o'zlashtirish orqali yiliga 1,5 ming tonna volfram konsentratini olish;

- “Qaratog” va “Boshtovoq” istiqbolli maydonlarini o'zlashtirish investitsiya loyihasi doirasida 1,8 million tonna rudani qayta ishlash;

- “O'zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ tomonidan Kattaqo'rg'ondagi “Ingichka” konidagi chiqindilarni qayta ishlash hajmini kengaytirish orqali volfram konsentratini olishni 1 ming tonnadan oshirish hamda Karmanadagi yillik quvvati 500 ming tonna sulfat kislotasi ishlab chiqarish zavodini ishga tushirish rejalashtirilgan.

2026-yilda ishga tushiriladigan loyihalar doirasida 4 400 ga yaqin yangi ish o'rinlarini yaratiladi.



9.5 Sohani 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha strategik rejalashtirish.

Tog'-kon sanoati va geologiya sohasida 2030-yilgacha tizimli islohotlar amalga oshirishdan ko'zlanayotgan bosh maqsad mineral resurslardan oqilona va mas'uliyatli foydalanish orqali barqaror iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi zamonaviy va innovatsion geologiya hamda kon-metallurgiya sanoatini barpo etish, mintaqada yetakchi maqomiga erishish hisoblanadi.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan "Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" ishlab chiqiladi.

Strategiyaning asosiy ustuvor yo'nalishlari sifatida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, geologiya-qidiruv ishlarini sifatli tashkil etish, ishlab chiqarishda samaradorlikni oshirish, raqamlashtirish darajasini oshirish, mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, investitsiya muhitini yaxshilash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va "Yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy etish, soha uchun milliy kadrlarni tayyorlash, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish kabi yo'nalishlar belgilangan.

Mazkur yo'nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali quyidagi maqsadlarga erishish maqsad qilingan:

- sohada investitsiyalar muhitini yaxshilash, soliq tizimi takomillashtirish, davlat regulyatorlik funksiyasini rivojlantirish, ochiqlik va shaffovlik tizimini ta'minlash kabi muhim yo'nalishlarda normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish;

- qimmatbaho, rangli metallar va sanoat uchun muhim minerallar zaxira hamda resurslarini o'stirish yo'nalishida geologiya-qidiruv ishlari, xususan regional miqyosdagi geologik o'rganishlarni jadallashtirish;

- tizim korxonalarida texnik siyosatni tubdan takomillashtirish, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali ishlab chiqarish hajmlarini va mahsulot turlarini bosqichma-bosqich ko'paytirish, operatsion samaradorlikni oshirish hamda mahsulot tannarxini pasaytirishga erishish;

- sohada davlat xizmatlari ko'rsatishni to'liq elektron tizimga o'tkazish, "Raqamli geologiya" axborot tizimini yaratish, tizim korxonalarida texnologik va biznes jarayonlarni boshqarishda raqamlashtirishni keng joriy etish;

- mahalliyashtirish dasturi doirasida tizim korxonalari ehtiyojlari uchun tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallarni ishlab chiqarishni o'z quvvatlari, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi hamda yirik investitsiya loyihalari hisobiga kengaytirish;

- Ilg'or xalqaro tajriba asosida



investorlar uchun jozibador va raqobatbardosh investitsiya muhitini yaratish orqali xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish;

- sohada atrof-muhit, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) standartlarini keng joriy etish;

- ishlab chiqarish jarayonlarida issiqxona gazlarini kamaytirish va energiya resurslarini tejashga xizmat qiluvchi texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish;

- tog'-kon sanoatining rivojlanish tendentsiyalarini hisobga olgan holda soha uchun umumiy hamda tizim korxonalarining "Iqlim Strategiya" sini (Climate Strategy) ishlab chiqish;

- soha bo'yicha oliy ta'lim muassasalarini dunyoning eng nufuzli top-1000 universitetlar reytingiga kiritish;

- ishga tushadigan investitsion loyihalar doirasida yaratiladigan ish o'rinlari, zarur mutaxassisliklar va raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy qilinishini inobatga olgan holda buyurtma asosida kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish;

- kon-metallurgiya va geologiya sohasida kadrlarni sertifikatlash milliy tizimini joriy etish;

- sohada ta'lim muassasalari, ishlab chiqaruvchi korxonalar, ilmiy tadqiqot institutlari va vazirlik o'rtasida innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirish vazifasini bajaruvchi kengashi tashkil etish;

- soha bo'yicha ilmiy tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalari laboratoriyalarini bosqichma-bosqich xalqaro akkreditatsiyasidan o'tkazish;

- ilmiy tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasida natijaga asoslangan moliyalashtirish tizimini joriy qilish hamda integratsiyasini amalga oshirish va boshqalar.

Shuningdek, vazirlik tomonidan xalqaro konsultantlar bilan birgalikda qora metallurgiya sanoatini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqiladi.

Mazkur hujjat bilan O'zbekiston Respublikasida qora metallurgiya sanoatini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi, maqsadli ko'rsatkichlar hamda strategiyani amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanadi.

O'z navbatida strategiya quyidagi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi:

- qora metallurgiya sanoatida xomashyo bazasini rivojlantirish;


- yuqori qo'shilgan qiymatga ega raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish;

- strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun munosib shart-sharoitlar yaratish va sohaga xorijiy investitsiya oqimini ko'paytirish;

- qora metallurgiya sanoatini bozor mexanizmlari asosida rivojlantirish va boshqalar.



Strategik turdagi foydali qazilmalar bo'yicha yer qa'ridan foydalanuvchilarga ruxsatnomalar berish tartibi





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG'-KON SANOTI
VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

+998 (71) 231-05-96
www.gov.uz/mingeo
info@mingeo.uz